

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan

"BARQARORLIK KURSI" seminar trening noyabr oyi

BAYONNOMASI

Sana: 12- Noyabr, 2025 yil

Mavzu: Energiya samaradorligi va yashil texnologiyalar

Qatnashdilar: Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar.

KUN TARTIBI:

1. QS platformasining Barqarorlik yo'nalishi va uning ahamiyati haqida ma'lumot berish.
2. Energiya tejash, qayta tiklanuvchi energiya va yashil texnologiyalar haqida ma'lumot berish.
3. Universitetda barqaror muhitni yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili.
4. Talabalar ishtirokida ekologik tashabbuslarni rivojlantirish masalalari.
5. Savol-javob va muhokama.


ESHITILDI:

Seminar davomida QS platformasining Barqarorlik yo'nalishi bo'yicha universitetda olib borilayotgan ishlar, xalqaro reytinglar talablari hamda barqaror rivojlanish maqsadlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Talabalarga ekologik madaniyatni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yashil tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Energiya tejash — mavjud energiya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish orqali energiya sarfini kamaytirish demakdir. Elektr energiyasini tejoyvchi yoritish tizimlari, energiya samarador uskunalar, issiqlik izolyatsiyasi va aqlli boshqaruv texnologiyalari energiya yo'qotilishini kamaytiradi. Bu nafaqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki atrof-muhitga zararli gazlar chiqishini kamaytirib, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Kundalik hayotda keraksiz chiroqlarni o'chirish, energiya tejoyvchi qurilmalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh, shamol, suv va biomassa kabi tugamaydigan tabiiy resurslarga asoslanadi. Ushbu energiya turlari ekologik toza bo'lib, atmosferaga zararli moddalar chiqarmaydi. Yashil texnologiyalar esa energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslarni asrashga qaratilgan innovatsion yechimlardir. Quyosh panellari, shamol generatorlari, yashil qurilish va aqlli energiya tizimlarini joriy etish barqaror rivojlanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

QAROR QILINDI:

1. QS Barqarorlik yo'nalishi bo'yicha targ'ibot va seminar-treninglarni muntazam davom ettirish.
2. Talabalar va xodimlar o'rtasida ekologik loyihalarda ishtirokni kengaytirish.
3. Universitetda energiya tejamkorligi va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha tashabbuslarni kuchaytirish.



Mas'ul shaxs: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna

Imzo: